

ТА'ЛИМНИ TASHKIL ETISH TURLARI VA SHAKLLARI

*Seyilova Dilfuza va Sapparova Gulnur**Nukus davlat pedagogika instituti**«Boshlang'ich ta'lim» fakulteti 3-kurs talabalari*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'limni qanday rivojlantirish va takomillashtirish, ta'lim va tarbiyani bir-biridan ajratib bo'lmashligi haqida, ota-bobolarimiz merosi va davlat siyosati borasida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: DTS, barkamol avlod, yoshlar, ota-bobolarimiz merosi, xulq-atvor, huquq, konstitutsiyaviy huquqlar, milliy qadriyatlar.

Ta'limni tashkil etishda avvalo, bizga darslik, turli xil innovatsion texnologiyalar, multimedia vositalari kerak bo'ladi. Darslikdan o'quvchilarga Davlat Ta'lim Standartida ya'ni DTS bo'yicha berilgan mavzular, topshiriq va mashg'ulotlarni o'tkazish uchun foydalanamiz. Innovatsion texnologiyalardan-darsimiz davomida o'quvchilarni qiziqtirish uchun turli yangi g'oyalar asosida foydalanamiz. Multimedia asboblardan esa-darsga, mavzuga doir materiallar, turli videoroliklar va prezentatsiyalar-slaydlar uchun foydalanamiz. Yana o'qituvchi uchun kompyuter va turli texnika vositalari ham kerak bo'ladi.

1997-yil 29- avgustda O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi. Bu qonunda ta'kidlanganishicha, ta'limning mazmuni: har bir o'sib kelayotgan yosh avlodni hayotta va dunyoviy demokratik jamiyat baxt saodati yo'lidagi yuqori unumli mehnatiga barkamol avlod qilib tarbiyalash va tayyorlash bilan belgilangan. Ushbu qonun Fuqarolarga ta'lim va tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilash va har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta'minlashga qaratilgan. [1].

Haqiqatan ham, bizning asosiy qomusimiz bo'lgan Konstitutsiyamizda belgilab qo'yilgan: «Har kim bepul bilim olish huquqiga ega»-deb. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, har birimiz yaxshi joylarda yaxshi ta'lim tarbiya, bilim olishimiz kerak. Bizga davlatimiz tomonidan shunday keng imkoniyatlar va shart-sharoitlar yaratilgan. Biz shu imkoniyatlarning qadriga yetishimiz kerak, yaxshi o'qib-o'rganishimiz, ta'lim va tarbiya olmog'imiz lozim.

Ta'limning asosiy mazmuni uning vazifalarida oydinlashtiriladi. Asosiy vazifalarga aqliy tarbiya bilan bog'liq bo'lgan vazifalar kiradi. Bu vazifalar ichiga ilmiy va texnikaviy bilimlar, hamda ular bilan bog'liq bo'lgan malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ajdodlarimiz qoldirgan tarixiy va madaniy qadriyatlarda hayotning ma'nosi, jamiyatda insonning tutgan o'rni, ta'lim-tarbiyasi, odob-axloqi haqidagi hikmatli fikrlar borki, bular bugunga qadar huquq ta'limi taraqqiyoti uchun va milliy

maktab yaratilishi borasida yoshlarimizda insonparvarlik, poklik, imon-e'tiqod, muruvvat, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, millatlararo do'stlik munosabatlari, qahramonlik, mardlik singari tuyg'ularini tarbiyalaydi. [2].

Yosh avlodni ota-bobolarimiz qoldirgan boy tarixiy meroslarimizdan unumli, oqilona foydalanishga o'rgatishimiz kerak. Ularni kattaga hurmat kichikka izzat kabi munosabatda bo'lishimiz kerak deb ongigga singdirishimiz joiz. Bu vazifalar hozirda, maktablarimizda, boshlang'ich sinf paytidanoq, tarbiya va odobnoma darslari orqali o'rgatilib boriladi. Bir maktabda o'rganadi deb o'tirmasdan, uyda, oilada ota-onalarimiz ham tarbiya berib borsalar maqsadga muvofiq bo'lardi. Sababi, o'quvchi maktabga borgach, o'qituvchi, ya'ni boshlang'ich sinf o'qituvchisining ishi, mehnati ko'payadi. Bolalarga ta'lim-tarbiya beradi, ota-onalari bilan hamkorlikda bo'ladi. O'quvchilarning psixologiyasini, xulq-atvorini va hatti-harakatini o'rganadi. Shunga qarab turli qiyin vaziyatlardan chiqib ketishni o'rganadi.

Yangi demokratik jamiyat qurishda ta'limning mazmuni bu jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqib va quyidagilarga amal qilgan holda belgilanadi:

- ilmiy bilimlarning yetakchi roli to'g'risidagi qoidaga;
- insoniyatning madaniy-ma'rifiy merosi, boyliklarini, umuminsoniy qadriyatlarini egallab olish, haqidaga, «Milliy dastur» ko'rsatmalariga;
- tarbiyalanuvchi shaxsni barkamol avlod qilib rivojlantirish, iymon-e'tiqodini, ilmiy dunyoqarashini tarkib toptirish;
- ilmiy hayot bilan yagona demokratik jamiyat qurilishi tajribasi bog'liqligi haqidagi qoidaga;
- ta'limning bir maqsadga qaratilganligi (umumiy yoki kasbiy ta'lim);
- ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplariga va didaktik prinsiplariga muvofiqligiga amal qilinadi. [3].

Bizning hozirgi ta'lim tiziminiz siyosatga ham aloqador hisoblanadi. Sababi, ta'lim olmasdan, bilim olmasdan siyosat yuritish, davlatni boshqarish mumkin emas. Shuning uchun ham davlatimizda eng dastlab ta'limga kuchli e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim sohasidan yuqori natijalarga erishishni talab qilmoqda. Ta'limni rivojlantirish va takomillashtirish uchun qo'ldan kelgancha harakat, tinimsiz mehnat qilinayapti. O'quvchilarga qo'yilgan talablar asosan, yaxshi o'qish, bilimli-ilmli bo'lish, ilm-fanning turli sohalari bo'yicha ochilmagan qirralarini kashf etish, rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Tarbiyani ham ta'lim bilan bir qatorda teng qilib berish lozim. Baribir odamning tarbiyasi, odobi bo'lmasa ming bilimli, ilmli bo'laversin, foydasi yo'q. Tarbiya ta'limdan ham ustun turadi. Tarbiya bo'lmasa, to'g'ri kelgan gapni gapiraversa, yomon hatti-harakatlarini qilaversa, turli yomon illatlarga, oqimlarga qo'shib ketsa bu davlatda hech qanday rivojlanish, yuksalish bo'lmaydi. Aksincha, davlat obro'si tushib ketadi. Davlatni rivojlantirish va yuksaltirish uchun turli xil yomon illatlarga va oqimlarga qarshi kurashmog'imiz

kerak. Ana shundan keyin davlat yuksaklikka ko'tarila boshlaydi, rivojlanadi, tinchlik hukm surayotgan har bir mamlakatda barqarorlik, olg'a intilish kuchli bo'ladi.

Ta'limning mazmuni o'zgaruvchan, u doimo yangilanib turadi. Yangi demokratik jamiyat qurayotgan hozirgi kunlarda fan va texnikaning, pedagogik texnologiyalarining jadal rivojlanishi, xalqimizning madaniy-ma'rifiy yuksalishi tufayli bu jarayon ayniqsa tezlashdi. Biroq material tanlash va ta'limning mazmunini yangilash didaktik muammolar bo'lib qolmay, balki yetarlicha murakkab muammodir. Paydo bo'layotgan Yangi bilimlar oqimi uchun eng muhim, xalq ta'limi vazifalarini hal etishda asosiy ahamiyatga ega bo'lgan vazifalarni ajratib ko'rsatish va ayni vaqtda qanday o'quv materiallarini chiqarib tashlash hisobiga ular dasturlarga kiritilishini hal etish kerak. Ta'lim to'g'risidagi qonunga asosan akademik litsey va kasb-hunar kollejining ham huquqi tenglashtirilgan. Ularning o'quvchilari va bitiruvchilari oliy o'quv yurtiga kirishda yoki tanlangan yo'nalish bo'yicha faoliyat ko'rsatishda konstitutsiyaviy haq-xuquqlarini amalga oshirishda teng huquqlidirlar. Shu bilan birga akademik litsey va kasb-hunar kolleji o'z oldiga qo'ygan maqsadlari bilan bir-biridan ma'lum ma'noda farq qiladi. Akademik litseylar — o'quvchilarning qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishini, chuqurlashtirilgan, ixtisoslashtirilgan holda o'qitishni ta'minlaydi. Akademik litseylarda o'quvchilar o'zlari tanlagan yo'nalishi bo'yicha bilimlarini oshirish va muayyan fanlar asoslarini chuqur mukammal o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladilar. Akademik litseylar asosan oliy o'quv yurtlari qoshida tashkil etiladi. Kasb-hunar kollejlari esya o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligini, layoqatlarini, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, ularning tanlagan yo'nalishlari bo'yicha bir yoki bir necha zamonaviy kasb egallash imkonini beradi. Kasb -hunar kollejlari oldingi bilim yurtlaridan ham mazmunan, ham shaklan tubdan farq qiladi. [4].

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar bir-birlari bilan o'zaro katta farq qiladi. Akademik litseylarda tahsil olish oliy o'quv yurtlariga kirish uchun tayyorgarlik sifatida qaralsa, kasb-hunar kollejlari o'qish har bir o'quvchining o'z istagiga qarab ta'lim yo'nalishlariga ajratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I. A. Karimov "Barkamol avlod orzusi" T.: "Sharq" 1999-y.
2. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi" T.: 2000-y.